**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**« MUHANDISLIK - TEXNIKA» FAKULTETI**

**«YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYALARI va JIHOZLARI» KAFEDRASI**

**«KOSTYUM KOMPOZITSIYASI VA TARIXI» fanidan**

# K U R S I S H I

**mavzu:**

## «O'RTA ASR OVRUPO MADANIYATI, SAN'ATI VA KOSTYUMI TARIXI»

**BAJARDI:** **28-12 MYESTJ guruh talabasi**

**To'ymurodova Iroda**

**RAHBAR:** **dots. S.U. Pulatova**

**TASDIQLADI:** **dots. Z. Sh. To'xtayeva**

**Buxoro-2014 y.**

# MUNDARIJA

Kirish…………………………………………………………..5

1. Urta asr Ovrupo kostyumi…………………………………….8
2. Ovrupo Uyg’onish davrining kostyumi………………………18
3. XVII-XVIII asr Ovrupo kostyumi…………………………….21
4. XIX asr kostyumi……………………………………………..28
5. XX asr kostyumi………………………………………………32

Xulosa……………………………………………………… 34

Adabiyotlar ro’yxati………………………………………………35

# KIRISH

Kiyim kishilik jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo`lgan. Hayvonlar terisi, baliq ichaklari, o’simliklar va hokazolar kiyim uchun material bo`lgan.

**Kostyum –** bu insonning individualligini yoki ijtimoiy guruhni ifodalovchi muayyan obrazli badiiy sistema.

Yelka va bel kiyim, bosh kiyim, poyabzal, kuimchalar (aksessuarlar), bezaklar, grim, soch turmagi, tanani boyash, uning shaklini o`zgartirish- bularning barchasi birgalikda kostyumni tashqil etadi.

Kostyum shakli paydo bo`lishiga, uning o`zgarishiga, mukammallashib borishiga kuyidagilar sabab bo`lgan: tabiiy omil – Koinot, Er, tashqi muhit, iklim, fasl va boshqalar; ijtimoiy iktisodiy omil – jamoaning tuzumi, halqning tariihiy takdiri, etnik guruhi va millati, din, turmush tarzi, fan va tehnika rivojlanishi va boshqalar; insoniy omil – jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psihologik turi.

Kostyum ushbu sabablarga ko`ra uz tomonidan bir necha vazifani bajaradi: himoya, biostimulyatsiya, erotik, ijtimoiy, belgi, estetik va boshqalar.

Har fanday davr kostyumi san’at asari bo`lgan, chunki insson uzining estetik didigava tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan o`zgarib turuvchi murakkab san’at asaridir va uziga hos kompozitsiyaga ega.

Kostyum barcha san’at turlari bilan uygunlashadi, ayniqsa, me’morchilik bilan. Chunki me’morchilikda va kostyumda o’ziga xos tektonik tuzilishlar va konstruktiv aniqlik bor.

Kostyum tarihini tadkikot qilish uchun turli manbalardan foydalanish mumkin: davr va halq tarihii, tasvviriy san'at asarlari, amaliy san’at asarlari,

adabiyot ma’lumotlari va saklanib qolgan libos na’munalarihamda moda jurnallaridan va boshqalar.

Uslub – bu jamiyat moddiy va ma’naviy madaniyatidagi muhim va harakterli belgilar obrazli sistemasi ijodiy printsiplarning tarihan tarkib topgan bbir kadar barkaror mushtarakligidir. Uslub - bu davrning badiiy tili, uning badiiy harakteristikasi. Davr uziga hos ijtimoiy-iktisodiy formatsiya bilan belgilanadi.

Har bir davrning uziga hos badiiy uslubi bo’ladi. U jamiyat hayotidagi muhim omillarni aks ettiradi. Har kaysi tarihiy davr uzi uchun harakterli shakllarni tanlar, insonning ma’lum darajada kostyummda uz ifodasini topgan muayyan estetik idealini uziga buysundirar edi.

Har qanday tarihiy davrdagi kostyum shaklining zaminida odamning muayyan daorajada plastik nafis obrazi va gavdasi yotadi. Har bir garmoniya (yunoncha garmoniya – predmetlar, voqealar, buutun kismlarning turli sifatlarining bog`liqligi, kelishganligi, muvofikligi, monandligi) va barkamolligi haqida, inson gavdasining estetik idealligi tugrisida uzining tushunchasini rivojlantirardi, bundan esa kostyumdagi mutanosiblik, kulam, geometrik hajm, shakl va ranlaarning turli-tumanligi kelib chikadi.

Muayyan ijtimoiy-iktisodiy formatsiya tikuvchilik rassomlarining kanchalik me’yor, estetik ideal bilan yondashganligi moddiy muhim predmetlari stilining, ko`p turlilikdagi bbirligining haarakterini belgilab beradi.

Urta asrlar kostyum gavdani turli vvositalar yordamida kiisib, tabiiy shakldan uzoklashtiradigan «gilof» sistemasi rivoj topishini boshlab berdi.

Bunday kostyum yukori tomon intilgan buthonalar arhitektura shakllarining dabdabador, chuzikligida, turmush va odatlarning settakallufligi tamtarokligida namoyon bo`lgan usha davr umumiy uslubining ifodasi edi. Ruhiy omil bilan moddiy omil urtasidagi ziddiyat kuchayib ketganligi natijasida urta asrlarsan’atida disproportsiya bilan assimmetriya alohida ifodasini topadi.

Uygonish davrda estetik dunyo karashlarni kayta baholash yuz beradi: yangi gummanisstik idealogiya shakllanadi. Bu buyuk geografik kashfiotlar, ilm vva tehnika yutuklari davri, san’at davri edi.

Uygonish davridagi vazmin garmmonik shakllarning aksi tarikasida absolyutizm, dvorianlar madaniyati va dunyoni bo`lib olish maksadidagi urushlar ta’sirida tarkib topgan Baroko uslubidagi XVII asr san’ati kelib chikadi.

Endilikda odam ma’naviy kudratini gavda proportsiyalarining guzalligini namoyish kilmaydi: ijtimoiy-moliyaviy dunyodagi kudratli odam obrazi etibbor markaziga o`tadi. Gavdaning plastikasi o`zgaradi, chunki podsho saroylarida oyoq uchida yurish lozim bo`lib, bu poshnali poyabzal paydo bo`lishiga olib keladi. Gavdagni munosib kiliib kursatish uchun kostyumning elkasi korin kismi taagiga har-hil tagliklar kuyadi. Ayollar kiymi kimmatboho gazlamalardan (parcha, atlaas, duhobadan) ko`p kavatli qilib tiqilib naksh jimjimalari, bandlar va tukilgan tur bilan bezatilgan.

Moda (frants., moda – me’yor, tarz, usul) paydo bo`lishi anchagina murakkab voqea bo`lib, jamiyat hayotidagi qator-qator hayot omillarga bog`liq, insonning juda ko`p faoliyatiga o`tadi.

Moda – turmushning tashqi kurinishida, asosan kiyimda namoyon bo’ladigan biron didning muayyan ijtimoiy muhitda ozrok vaqt hukmron bo`lib turishidir.

Moda bilan uslub o’rtasidagi farq zaminida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning utmishga va tevarak-atrofdagi dunyoga munosabati umuman ifoda topsa, modada anashu jamiyat ichidagi zamondoshlarning uzaro bog`liqligi aks etadi.

«Umuman modaga hayratlanib va hayrihohlik bilan karaydilar. Undan zavklanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoktirmaydiganlar ham bo`lib, ular uzining etuk bulmagan yoki ochikdan-ochik konservativ didlarini boshqalargautkazish mumkin deb hisoblaydilar. Model’erlarning har bir yangi

taklifiga ular ashaddiy karshilik ko’rsatadilar ular tungillab zarda qilib yuradilar, redaktsiyalarning jahldor hatlarga kumib tashlaydilaar, zamonaviy kiyingan kishi ketidan haykirib kulgi kutaradilar. Birok hali hech kim vaqtni tuhtata olgan emas!»

Almashlab turish moddaning eng muhim hususiyati. YAngi moda paaydo bo`lganda bo`lganda kostyumm uzining estetika kadrini yukotadi. Bu esa modaning haraakteridagi ziddiyatni ko’rsatadi. Moda vaqtinchalik va utiib ketadigan tushuncha-ku, lekin unda guzallik tushunchasi sifattida saklaanib koladigan estetik topilmalar ham bo’ladi. Moda – zamonaviy degani, estetik kiymat esa hamma vaqt o`zgarmas bo`lib koladi. Birok modaning ziddiyatliligii uuning progressivliligini inkor etmaydii. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo’ladi. Moda turmush madaniyati va estetikasini olga tomon etaklab boradi. U zaamonaviylik nuktai nazaridan eng makul echimlarni tanlab oladi. «Mod – bu yangilnish! Bu tbit rioya kildigan printsip! Daraht eski brgini, odam esa jonga tekkan kiymini tashlaydi. Narsalar haddan tashkari urganish bo`lib ketsa, odam ulardan tez charchaydigan bo`lib koladi. Moda zerikarli bir hillikdan holos kiladi. Odamlar bir-biriga yokishni hohlaydi: chiroyli kiyinsam, yahshi kurinsam deydi – bu tabiiy ehtiyoj».

Moda - bu taklid va yangilik. Lekin bunda hamma vaqt yangilikka yoki gayritabiiylikka taaklid kilinavermaydi. SHahs bilan jamiyatning uzaro munosabatida taklid bilan bir qatorda buning aksi bo`lgan hodisa uziga hoslik namoyon etish ham bo’ladi.

Moda qaerda paydo bo’ladi? Ko`pchilik Modalaar uyida deb hisoblaydi. Xo’sh, Modellar uyi bulmaganda moda qanday paydo bo`lgan? Hamma vaqt modaning avtori bo`lganmi? Moda tarihchisi Beyonning takidlashicha, modaning asosiy chizigini hech kim yaratmaydi. Moda jamiyat bilan birgalikda usa boradi va tarakkiy topadi, u zamona farzandi-yu, lekin uzining kat’iy harakteri bor. Muayyan

konkret moda kuchkiga sabab bo’ladigan kor sokkaga uhshaydi. U usib, semirib boradi-da nihoyat, chegarasiga etganda, buzilib ketadi.

Ijtimoiy-iktisodiy formatsiya, iqlim, tevarak atrofdagi tabiat halq an’analari, turmush-tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, fan, tehnika, sportga ommaviy qiziqish, yangi materiallar paydo bo`lishi, kosmik davr kabi turli tuman omillar mmodaning shakllanishiga ta’sir ko’rsatadi.

## 1. VIII-XX ASR BOSHIDAGI SAN’AT. KOSTYUM TURLARI. KIYIMNI SHAKL, BICHIMI BEZAKLARI, QO`LLANGAN MATERIALLAR VA BEZAKLAR. REGIONAL VA IJTIMOIY BELGILAR.

## G’ARBIY EVROPA KOSTYUMI (V -XX ASRLAR)

O’rta asrlar davrida yangi go’zallik ideali - bibi Maryam, hudoning onasi timsoli paydo bo’ldi.

XII - XIV asr 1-yarmi. Erkak va ayollar kiyimi uzun, yopishib turadi, Kiyim ort kiem O’RTA va yon qirqimlar orqali va bel sathida ovalsimon qirqimli chokning shnur orqali utkazilishi okibatida yopishib turardi.

XIV asr 2-yarmi va XV asr 1-yarmi (tonika davri). Erkaklar kalta kiyimining paydo bo’lishi. Birinchi bo’lib ristar kostyumi yahlit metall (detallari sharnir bilan biriktirilgan) kolchuka paydo bo’ldi, qaysikim aholida detallarga bulingach, old, ort bo’lak va eng shakllari aniqlanadi. Hajm vitochkalar orqali hosil qilinardi. Bel esa qirqimli edi.

XV asr 1-yarmida uzun va tor kiyimlar, osilib turuvchi englar, uchli tuflilar, ulkan bot kiyimlar moddada edi.

Ranglar gammasi - ochiq va tinik qizil, kuk, yashil.

Ilk O’RTA asrlar davri (VI - XII asrlar). Erkaklar kostyumiga ristarlar qurol - yarog’i shaklining ta’siri ko’zatilardi. Blio - pastroq joylashgan kirkma bel bo’lib, ustki berk kiyim. Naramnik - yon tomonlari ochiq, bot uchun qirqimi gazlamaning to’rtburchak yoki ovalsimon gazlama bulagidir**.** Naramnik - mipartn gerbsimon belgilar bilan bezatiladi. VIII asrda syurko - yon tomonlari tiqilgan, chukur eng o’mizi kiyim bo’lib, kott - ko’ylak ustidan kiyilardi.



**1-rasm. Qadimiy O'vropa naqshlari**

 

**2-rasm. Qadimiy O’vropa kiyimlari:**
**naramnik-miparti**

Kech O’rta asrlar davri (XIV - XV asrlar) Erkaklar kostyumi siluetlari, yopishib turuvchi va etagi kengaygan engli, bezak belbog’li, oldindan tugmali iahmalar belda tortilib turuvchi, kalta jaket bilan almashdi. Ushbu kurtka uzun tumshuqli (70 sm) "pigash" nomli poyafzal bilan kiyiladi. Poyafzal rangi kiyimlar rangiga mos tanlanadi.

Syurko o’rnini upedyand-belbog’li va belbog’siz, engi keng (3 m), etagi (eni 3 m) va uzunligi keng, qadalmaydigan qoplama kiyim bilan almashdi. Boshga esa kapyushon-shaperon uchlari osilib turuvchi drapirovkali bot kiyim. Soch turmagi uzun gajakli va chelkali.



**3-rasm. Qadimiy O’vropa kiyimlari: tapert**



**3-rasm. Qadimiy O’vropa kiyimlari: Upelyand**



**3-rasm. Qadimiy O’vropa kiyimlari: Syurko**



**4-rasm. Qadimiy O’vropa kiyimlari: Kurtka-kotardi**

**5-rasm. Qadimiy O’vropa ayollar kiyimlari: bliosi**



**5-rasm. Qadimiy O’vropa ayollar  kiyimlari: bliosi**



**6-rasm. Qadimiy O’vropa ayolar kiyimlari: syurkosi**

**Ayollar kostyumi.** Ilk o’rta asrlar davrida ayollar asosan ikkita tunikani ustma - ust kiyishardi. Unda ostki tunika keng, uzun, engi tor bo’lsa, ustki tunika etagi kalta, engi keng va kaltarok edi. O’z vaktida ko’krakni kisib turuvchi kalta jilet, blio, плащ - mantiya paydo bo’ldi. Bosh yopinchoqlari yukolib, uringa soch yoyib yoki o’rib qo’yilardi. Oyoq kiyim erkaklar poyafzaliga o’hshash.

Kech o’rta asrlar davrida hayrlashayotgan **gotika** arhitekturasining ta’siri kostyum cho’ziq proporstiyasida kuzatiladi. Siluetlar - yopishib turuvchi va trapestiya.

Qadimiy Rimning 476 yilda fojeali haloqatga uchrashi bilan uning tehnik va badiiy madaniyati uzoq muddatga esdan chikdi. Quldorlik tuzumi va antik tsivilizatsiya vayron bo`lgan edi. Shundan sung bir necha asrlar davomida Ovrupo mintakasida barkaror kudratli mamlakatlar faoliyat kursatmagan yoki paydo bo`lishi bilan yana barbot bo`lgan. Nihoyat, Ovrupoda birinchi mustahkam mamlakat – fraklar davlati – IX asrning ohirida paydo bo`lgan edi.

Urta asr Ovrupo mamlakatlari yangi feodal ijtimoiy-iktisodiy munosabatlar asosida kurilib, jamiyat asosiy kuchlari – feodallar va ularning karamogidagi dehkonlardan iborat bo`lgan.

IX-asrga kelib, Ovrupo halqlari nasroniylikni kabul kilgandan keyin,cherkov odamlar hayotida muhim rol uynay boshladi. Monastirlar kishloq hujaligi, hunarmandchilik va har-hil san’at turlari: miniatyura san’ati, kitoblarni kuchirib yozish, zargarlik kabi sohalar rivojlantirildi.

IX-XII asr shoirlari ma’lumotlari buyicha, ayollar jingalak tilla sochli, gulgun chehrali, endigina uzilgan shaftoli kabi labli bo`lishi kerak edi. Ularning guzalli, rahmdilligi, vofodorligi ritsarlar musobakalarida tarannum qilinar edi. Noziklikning, nimjonlikning, nafislikning ramzi bo`lgan atirgul timsoli keng tarkalgandi. Atirgullar bilan ovkatlanadigan stolni bezatar edilar, gul baarglari vino kosalariga solinardi. Aynan, shu shafkatsiz, zulmat bosgan davrda «guzal

ayolga» siginish paydo bo`lgandi va bu kelajak avlodlarning ayolga bo`lgan munosabatatiga katta ta’sir etdi.

Ilk urta asr davr san’atida **Roman** badiiy uslubi vujudga kelgan edi. Bu uslubda diniy-feodal mafko`ra hukmron edi. Uning asosiy hususiyatlari dabdabalilik, ulugvorlik bo`lib, kurilishlar ogir va salobatli, inshootlarning devorlari kalin, eshik va yarim doira shaklidagi derazalari tor qilingandi. Kuriliish materiali mahalliy rangli granit toshi bo`lgan. Roman uslubidagi binolarning ichki kurinishi zulmat bosgan me’morchilikka mos edi. Bu tuk ranglar, gumbazsimon shiftlar, teri bilan koplangan terrakota rangli pollar, yogochdan yasalgaan panellaar, honani yoritish va isitish uchun kaminlar, devorga temir halqa yordamida mahkamlanib, yonib turgan mash’alalar edi. Ritsorlarning salb yurishlaridan keyin savdo-sotik, hunarmandchilikk rivojlandi, shaharlar usa boshladi, shazar madaniyati rivojlandi. Dorulfununlar ochildi. Shaharlarning markaziy maydonlarida hashamatli buthonalar, shahar idora markazi «ratushalar» kurilgan. San’atda **Gotik** uslubi yuzaga keldi.

Gotik uslubi Roman uslubining asosida paydo bo`lsa ham, undan ancha farklanadi. Bu uslubda me’morchilik va anjomlar qatori kastyumlar ham engil, nafis shakllar ustunlik kilardi. Gotik uslubning inter’eri unchalik zulmat bosgan emas edi, yorugligi ko`proq edi. Salb yurishlari katnashchilari SHarkdan olib kelgan kimmatbaho buyumlar (yumshoq gilamlar, idishlar vva b) paydo buldi.

Frantsiya urta asr klassik mamlakati, Parij esa urta asr toji deb hisoblanadi.



## 2. OVRUPO UYG’ONISH DAVRINING KOSTYUMI

XV-XVI asrlarda garb mamlakatlarida burjuaziyaning feodallarga qarshi ko`rashi jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy-iktisodiy va madaniy harakat, urta asrlardagi uzoq turgunlikdaan sung, fan va san’at tarakkiyotida, ulug kashfiot va ihtirolarda  uz aksini topgan va antik madaniyatga nikohishni kuchaytirgan.

Bu davr progressiv tuntarish yasab, jahon madaniyatidaa yangi muhim boskich bo`lgan edi.

Kirol hikimyati shaharliklarga suyanib, tarkoq dvoryan kuchlarini kuuporib, yangi birlashgan milliy monarhiyalarni barpo etdi. YAngi iktisodiy ijtimoiy munosabatlaar yaratildi. Yirik Ovrupo mamlakatlari boskinchilik siyosati natijasida mustamlakalarga ega bo`lib, boyiy boshladi. Keng jahon savdosi rivojlandi.

Zamon takozosi ulug siymolariga muhtoj edi va bu muhtojlik utkir fikrli, ehtirosli, serkirra bilimdonlarni – Petrarka, Kopernik, Jardono Bruno, Leonardo da Vinchi, Boqkachcho kabi mutafakkirlarni dunyoga keltirdi.

Ular urta sardagi zulmat bosgan katolik dini dunyosiga qarshi yangi, ruhni kutaradigan dunyoqarashni kiritdilar.

Bu davrda Rimda kazish ishlari olib borildi. Vizantiya barbot bo`lganda saklaniib kolgan kulyozmalarda, Rim harobalaridan kazib olingaan noyob san’at namunalaaridaa yangi dunyo – yunon-grek obidalari vujudga keldi. Uning yorqin shu’lalari oldida urta asr sharpalari goyib buldi.

Urta asrlarda ruhiy ozuqa – din bo`lgan bo`lsa, uygonish davrida esa – san’at edi.



Inson bilan nikohish, guzallik va tabiatga intilish tabiatshunoslik fanlarining, san’at va adabiyotning ravnak topishiga asos buldi hamda san’atda yangi badiiy usul – realizm keldi.

San’at asarlarining markazlarida irodasi murakkab va uziga hosligi, yutuk va kamchiliklari bilan buyuk inson turar edi. Bu – yangi erkin inson, tomonlama barkamol, cheksiz tarakkiyotga intilgan, epchil, hushyor, uddaburon, hayotiy kuchiga ishongan odam edi.

Tarihiy rivojlanish  notekis bo`lishiga qaramasdan, barcha Ovrupo davlatlari bu madaaniy tarihiy davrdan utib, uziga hos milliy fazilatga ega bo`lgan maadaaniyatni yaratadi.

Bu davr uzining yangi guzaallik idealini, odamning yangi kurinishini va, albatta, yangi nikob – kostyumini yaratdi. Uni yaratishda nafakat tikuvchilar, balki ko`proq rassomlar ham ishtiroq etganlar.

Ustki, keyin esa ichki kiyim keng, kulay bula boshladi. Kiyimlarda harakga erkinlik  beruvchi kesimlar paydo buldi, elkalar kengaydi, gavda salmoqli buldi, oyoqlarga keng bashmoqlar kiyishdi.

Erkaklarning kiyimlari salmoqliligi va hashamatliligii bbilan ajralib turar edi. Ular tashqi kurinishlariga ko`proq ahamiyat berardilar.

Bu davrda odamning tashqi kurinishi uning ijtimoiy holini, siyosiy fikr yuritishni, moddiy ta’minotga mansubligini kursatar edi.

## 3. XVII ASR OVRUPO KOSTYUMI

XVII asr – cheksiz monarhiya va mutlaklik kamo topgan, siyosiy tuknashuvlar va katta iktisodiy o`zgarishlar davri edi. Bu davrda feodal jamiyat orasida vujudga kelgan yangi sinf – burjuaziya siyosiy maydonga chikkandi. Burjuaziya mutloqnlik bilan ko`rashga kirishib, ayrim davlatlardainkilobiy tuknashuvlarda golib bo`lib chikkandi. Ammo feodalizm negizi kuchli va burjuaziya kuchsiz bo`lgan mamlakatlar asr davomida mutloqlik rivojlanmagan edi.

Frantsiya va Ispaniya klassik mutlaklik mamlakatlar bo`lgan. Agar XVII asrda Ispaniya chukur siyosiy va iktisodiy inkirozga kirgan bulga, Frantsiya asrning ikkinchi choragidan boshlab muvafakiyatli  urushlar va qator ichki reformalar natijasida dunyo mikyosida katta ahamiyatga ega bo`lgandi.

Ovrupoda Frantsiya  eng buyuk davlat bo`lib, moda sohasida eng oldingi urin borardi. Asr mobaynida Frantsiya tariihiga binoan kostyum modasi o`zgargandi. XVII asr birinchi yarmida Frantsiyaning tashqi va ichki siyosati cheklanmagan monarhiyaning kuch kudratini oshirishga karatilgandi. Mamlakatning iktisodini rivojlantirish



masalalari eng muhim deb hisoblangandi. Sanoat mollarining asosiy iste’molchisi dvoryanlar bo`lgani sababli, zeb-ziynat buyumlarini ishlab chikarish jadal ravishda usdi. Ipak gazlamalar (bahmal, atlas, kimhob, tafta va b.), turlar, tasmalar, ipak paypoqlar, batist, kulkoplar, zargarlik buyumlari boshqa mamlakatlargasotilib, frantsiya modaasining barcha Ovrupo mamlakatlariga taarkalishiga sabab bo`lgandi.

Frantsiya mutloqligi uz poytahtini eng guzal shaharga aylaantirishga intildi va, natijada, Parij Ovrupoda eng yirik madaniyat markaziga aylandi. Modalar fakar Parijda yaratilib, barcha Ovrupa mamlakatlariga tarkaladiggan buldi.

XVII asr mobaynida frantsuz kostyumi olti martaba o`zgartirildi. Mutloqlik kuchaygan sari dvoryanlar kostyumida ko`p o`zgarishlar ruy berdi, unda feodal-ritsar belgilari kamdan-kam kolgandi.

**Erkaklar kostyumi.** Erkaklar kostyumining shakli XVI asr ohiridaga kostyumidan deyarli o`zgarmagandi. Bu davr shakli oldingi asrga nisbatan yumshoqroqligii, yangi yoqa turlari va ishton «o-de-shoss» bilan farklanardi. Kostyum kalta purpurendan, keng kalta o-de-shossdan, ipak paypoq va etik yoki tuflidan iborat edi. Bosh kiyim yupka namatdan ishlagan bir tomoni tepaga kutarilgan keng yoki tor soyabonli baland shlyapa bo`lgan.

**Ayollar kostyumi.** XVII asr mobaynida erkaklar kostyumiga nisbatan ayollar kostyumi shaklining o`zgarishlarii kamroq bo`lgan.

XVIII asr Ovrupo kostyumi – feodalizm tuzumining sunggi boskichi va burjua inkiloblari davri edi.

Bu davrga kelib,  burjua madaniyatining asoslari paydo bula boshlaydi. Bu asoslar (Didro, Volter, Rusko kabi) ma’rifatchilar mafko`rasiga uz ifodasini topadi. Suzsiz, haar bir davlat uzining taarihiy sharoiti va milliy hususiyatlariga ko`ra tarakkiyot yuliga egadir.

XVIII asrda insonparvar madaniyat birligi tugrchsida fikr tug`ilgandi. Bu milliy intellegentsiyaning paydo bo`lishi va ular orasidagi aloqalarning kengayishi bilaan uzviy bog`liq edi. Buning natijasida mamlakatlararo madaaniy aloqalar kengaydi. Iktisodiy rivojlanishning uziga hosligi, tehnik tarakkiyot va ma’rifatparvarlik Frantsiyani burjua inkilobiga olib keldi. Frantsuz inkilobi feodal tuzumini batamom yuqotib, kapitalistik jamiyatni barpo etdi. Frantsiya san’ati barcha Ovrupo davlatlariga namuna buldi, frantsuz tili halqaro til bo`lib qoldi, frantsuz modasi barcha Ovrupo mamlakatlariga tarkalib, umumiy Ovrupo modasiga aylandi.

Angliyaning ta’siri falsafada, iktisodiy va ijtimoiy nazariyalarga hamda san’atda sezilardi. Frantsiya orqali ingliz kostyumi bir oz o`zgarib, «frantsuzlashib» barcha Ovrupo mamlakatlariga tarkalgandi.



**Erkaklar kostyumi.** Erkaklar kostyumi XVIII asrda bir qator o`zgarish va evolyutsiyadan utib, asrning ohirida uning shakli va rangi butunlay o`zgarib, birinchilikni ayollar modasiga berishgandi.

Erkaklar kostyumi ichki va ustki kiyimlardan iborat bo`lgan. Kukrak kirkimi turli jabo bilan bezatilgan, turldi manjetli oppoq ich ko`ylak kiyimning majburiy kismi edi. Ko`ylakning ustidan kamzol «vesta» - ni va uning ustidan kashtan «abi» ni kiyishgan. Kamzol yorqin shoyi matodan tiqilib, kashta bilan bezatilardi. Kaftan baahmal yoki kalin shoyi maatodan tiqilib, gavdaga beligacha yopishib turardi. Etagiga esa elimlangan kalin mato yoki kitning muyini tikishardi. Kaftan va kamzol yoqassiz bo`lgan. Kaftanning engi keng, uzunligi tirsagigacha, boshqa rangli matoldan qilingan manjetli edi. YOn chuntaklari kopkoqli bo`lgan va belidan pastroqka joylaangandi. Bort va manjetlari zar yoki kumush bilan kashtalangan va metall tugmalar bilan bezatilgan. Odatda, kaftan tugmalanmasdi. Galstuk kizil yoki tor tamdan qilinib, bantga boglanardi.

**Ayollar kostyumi.** XVIII asrning birinchi yarmida ayollar kostyumi juda guzal, nafis, och rangli bo`lgan. Ular nozik chinni haykalchalarga uhshagan. Tor elka, juda ingichka bel, yumaloq buksa chizigi, kichkina pariklar gavdaga noziklik bahsh etgan. Korset va ichki yubkaning utidan ichki ko`ylak «frepon» va ustki ko`ylak «modest» kiyilgan. Ichki yubkalari ohorlanardi, ba’zan kavilardi. Tantanali mmarosim liboslarida karkasi kit muyidan qilingan ichki yubkalar kiyishgan. Saroy ko`ylaklari ko`pincha shleyfli bo`lgan. Ammo yubka karkasga tortilgani uchun shleyfli mato parchasidan qilinib, elkasiga yoki beliga kistirilardi. Ichki ko`ylak – freponning lifi korset yordamida tor bo`lgan, ustki ko`ylak – modestning lifi oldi ochik bo`lgan, lenta yoki shnurovka bilan biriktirilardi. Ustki ko`ylakning yubkasini oldi ochik va chegarasi ser burmalangan oborqa bilan bezatilardi. Ichki yubkaning etagi esa kundalang yunalishda bezatilardi. Keng tarkalgan yoqa umizi kare edi. Uni ko`pincha tur yoki engil matodan qilingan volan bilaan bezashardi. Englari tor bo`lib, uzunligi tirsagigacha bo`lgan. Uchi tur yoki engil matodan qilingan volan bilan bezatilardi.

## 4. OVROPA KOSTYUMI. ROMAN USLUBI KOSTYUMI(IX- XIII ASRLAR), XIII-XV GOTIK USLUBI KOSTYUMI, XIII-XV ASRLAR OVROPA UYG`ONISH DAVRINING KOSTYUMI. BARAKKO USULIDAGI OVROPA KOSTYUMI. XIX-XX ASR KOSTYUMI. ZAMONAVIY MODA USTALARI

### XIX – ASR KOSTYUMI

XIX asr Ovrupo kostyumi tarihi 1789 yildan, ya’ni frantsuz burjua inkilobidan boshlanadi, deb hisoblansa hato bulmaydi. Asr ohiirida kosstyumni shaakllantirish asoslari yaratilgandi.

Frantsuz burjua inkilobi feodalizmni agdarib tashlab, kapitalizmni rivojlanishiga asos solgandi. YAngi davr jamiyatning kizgin rivojlanishi, iktisodining yuksalishi, ilmiy kashfiyotlar va keskin ijtimoiy ziddiyatlar bilan tasvirlanardi.

Frantsuz burjua inkilobi rasmiy jihatdan sinfiy tengsizlikka kostyumda ham barham bergandi. Saroy modasidan burjuaziya modasi ustunlik kilardi. Agar oldigi asrlardagi kostyumi bekorchilik va behudalikni kursatsa, endi kostyum yangi davr odamning ishchanliigini, hayotiy kuchini ifodalardi. Erkaklar kostyumi endi amaliy kostyumga aylandi.

XIX asrda umumiy Ovrupo kostyumini yaratish jarayoni nihoyasiga etgandi. Ammo turli mamlakatlarda yoki ijtimoiy tabakalarda milliy va mahalliy belgilari bo`lgan.

Jamiyatda modaning urni ham o`zgargandi. Uning ijtimoiy vvazifalari murakkabroq bo`lib, moda keng tarkaladigan buldi. Moda endi shahar aholisi uchun did rahbari va did tarbiyachisi bo`lib kolgandi.



XIX asr modasida asosiy urinni endi ayollar kostyummi egallardi. Erkaklar kostyumi esa fakat mato sifati bilan, ichki kiyimning oppoqligi bilan farklanardi. Endi kiyimning yorqinligi va bezaklarning ko`pligii bilan ajralib turishi erkaklar uchun kelishilmagan kili deb hisoblanardi. Ayollarning kiyimi esa erkaklar uchun «vizit kartochkasi» bo`lib qoldi.

Agar XIX asr davomida erkaklar kostyumining fakat detallar o`zgarsa, ayollarniki esa san'atning barcha uslubiy yunalishlariga buysunib, keskiy o`zgargandi.

XIX asr ayollar modasini yaratishda birinchilik Frantsiyada kolgandi,erkaklarniki esa – Angliya edi.

Napoleon frantsuz tukimachilik sanoatini rivojlantirish maksadida atlas va bahmalni modaga kirgizadi. U armiyada mosh rang, sudyalar uchun – qora, sud maslahatchilariga – kizil va barcha aholi tabakalariga oq rang libos kiyishni urf etadi.

**Erkaklar kostyumi.** Erkaklar ichki kuylagi baland tik yoqali oq ko`ylak bo`lgan. Ustidan ola-bula nimcha, ba'zan, baravar bir nechtasini kiyishgan.

Asr boshlarida erkaklar uzunligi etigigacha bo`lgan pantalon kiyishgan. 1818 yilga kelib, pantalon tupikkacha uzayib uzayib, modaga butunlay kirdi. Pantalonlar «podtyajka» (shimni tutib turish uchun ikki elka osha tortib kuyiladigan tasma) yordamida mahkamlanardi, shim pochasiga esa «shtripka» lar qilinardi.

Eng keng tarkalgan ustki kiyim frak bo`lgan. Uning beli sal balandroq kutarili, eng kiyamasi keng  va uchida varonkasimon manjet bo`lgan. Ko`pincha, yoqasi boshqa rangli duhobadan qilingandi. Fraklaar, asosan, sidirgamatodan tikilardi, ammo nakshli ham uchrardi. Tugmalari kumush, chinni va ba'zan, kimmatbaho toshlardan bo`lgan.

Ustki kiyimlar va pantalonlar har hil rangli edi: shu davr koidalariga binoan, pantalon rangi ochroq bo`lishi kerak edi.

Frantsuz inkilobi davrida paydo bo`lgan kalta sochli prichyoska  XIX Asr yutugi bo`lib kolgandi. Erkaklar prichyoskasi o`zgarib kolgan bo`lsa ham, endi uzun pariklarga kaytish yuk edi. Fakat ziyolilarning alohida guruhlari – rassomlar, yozuvchilar – ba'zan uzun sochli prichyoskalarqilishgan yoki pariklar kiyishgandi.

Ko`picha sochlarini orqasidan kalta kirkishardi, oldi esa uzunroq qoldirilib ozgina jingalak qilinardi. Harbiylarning orasida «bakenbard» kuyish odatga kirgandi.

Oyoq kiyimlari baland kaytarma kunjli, qora, sariq rangli etik va balga oid ochik tuflilar bo`lgan.

Ishchilar va mayda burjuaziya kiyimi ko`ylak, inkilob karmanolasiga uhshagan kurtka, uzun yoki kalta shimlar, ko`pol oyoq kiyim va «fetr» shlyapa bo`lgandi.

**Ayollar kostyumi.** Ampir uslubining ta’siri ayollar kiymidaa tez sezildi. Bu frantsiya imperato saroyi va yangi aslzodalarning paydo bo`lishi bilan bog`liq edi. Ular uchun Napoleon turli Ovrupo mamlakatlarining kirol saroylari odatlariga binoan saroy etiketini yaratgan edi. Undan tashkari, kimmatbaho matolar ishlab chikarishning tiklanishi ayollar kostyumi plastik echimining o`zgarishida kurinardi. Kostyum ogirlashib, turli deqorativ elementlari ko`paydi, ammo oldingi mutanosibliklar birinchi davr davomida saklanib kolgan edi. Ko`ylaklarning bel chizigi avvalgiday kukrakdan pastda edi, tugri yubkasi esa 1810 yilgacha shleyfli bo`lgan. Balga oid ko`ylaklarning dekoltesi chukur bo`lib, shl eyfli olib kuyiladigan edi. 1810 yildan keyin yubka keng emas, kungiroqsimon shaklda bo`lib, etagi ser bezatilardi.

Uy kiyimi sifatida turli «penyuar» kirgandi.

Bir kun mobaynida kiyimni bir necha marotaba almashtirish shart edi. Misol uchun, olifta ayolning 365 tadan shlyapasi va oyoq kiyimi, 12 kuylagi bo`lishi lozim edi. Ayollar fasonlarning hilma hilligiga intilishardi, ammo silueti bir hil – antik ustuniga uhshagan edi. Komatni shu siluetga moslashtirish uchun korsetga tuhtojlik tug`ilgandi. Korsetlar 1809 yilda amalga kirdi.

Prichyoskalar kiyimning detallariga uhshaash tez-tez o`zgarardi. Har hil jingalaklar yordamida yunon «tuguni» simon prichyoskalar qilingandi. Bosh kiyimlar ham tez-tez o`zgargan. Asosiy bosh kiyim «kibitka» bo`lgan. 1812-1814 yillarda harbiy «kiver» ga uhshagaan bosh kiyimni kiyishgan. Ballaarga esa doqadan salla kiyishgan. Oyoq kiyimi engil, poshnasiz, uchi tor bo`lgan. Uni tasma yordamida chalishtirib oyoqka boglashardi.

Kiyimga kushimcha qilib uzun kulkop, elpigich, haltacha va kichkina soyabon tutishgan.

## 5. XX ASR KOSTYUMI

XX asr Ovrupo kostyumining rivojlanishi shu davrning hayotiy murakkabligi va ziddiyatlari bilan chambarchas bog`liqdir.

Fan-tehnikaning keskin tarkkiyoti, yangi turmush tarzi modaning tez-tez almashishiga va uning ijtimoiy vazifalarining o`zgarishiga olib keldi. Moda va kiyimning demoqratizatsiyalanishiga sanoat mollarining moda yunalishi buyicha ishlab chikarilishi sabab bo`lgandi. Ovrupo kostyumi tarihida yangi yirik davr boshlandi.

**Erkaklar kostyumi.** Asr boshida erkaklaar turmush tarzi sport ta’sirida sezilarli darajada o`zgargandi. Sport kostyumi va uning elementlari kundalik keyiladigan kostyumiga moslashgandi. Kunning ikkinchi yarmida shaharliklar odmi kostyumda yurmasdan, sport kostyumini kiyishardi. Ayniksa, velosiped va mototsiklning keng tarkalishi modaga ham sezilarli ta’sir kildi.

Lekin kostyum bichimida erkinlik buldi, syurtuk urniga tamomila pidjak kirdi, tsilindrning urniga esa fetr shlyapa kirgan. Tanttanali kechalarda frak urniga «smoqing» kiyadigan bo`lishdi.

Kostyum rangining odmiligi uning detallarida ham sezilardi: galstuk va oyoq kiyimlari ham oddiylashdi.

Ammo XIX asr ohirigacha kiyim yordamida erkaklar gavdasining guzalligini kursatishga intilgan bo`lishsa, endi moda barchani bir hil siluetga kiyintirib, gavdaga ahamiyat bermas edi.

**Ayollar kostyumi.** XIX asorning 90-yillari ohirida yaratilgan kostyum XX asr boshida saklanib kolgandi. Amaliy san’atda modern uslubining tarakkiy topishi bilan va tanazzulga yuz tutgan adaabiyot bilan nikohish shu bejamdor idealning asosiy hususiyatlarini keskinlaashtirgandi. Parij moda uylari bu yunaalishni astoydil tarkatgandi. Bu davrdaa ayollar kostyumining silueti o`zgarmagandi. Kiyimning hilma-hilligi ayrim detallar yordamida burma yoki buf yordamida kengaygandi; bel chizigi oldida sal pasaytirilib, belbog bilaan aniklanardi. Engil yoz ko`ylaklarii va bluzkalar volanlar, plissirovkalar vva turlar bilan bezatilardi.

Soyaboni bejamdor egilgan va sal kaytarilgan, katta shlyapalar gullar, patlar, turlar va bantlar bilan bezatilgandi.

1906-1907 yillarda siluet ma’lum darajada o`zgardi: buksaga unchalik ahamiyat berilmasdan, gavda yanada egilgandi.

Oddiylikni fakat kundalik kostyumlarda uchratish mumkin edi. Sport va sayohat uchun kiyimlar kiskaroq qilinardi, ammo baland berk yoqali va kalin jun matodan bulardi.



# XULOSA

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siysatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy mustaqillik mafkura ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Ularni har tomonlama etuk insonlar qilib tayyorlash ta'lim-tarbiya muasasalarining asosiy vazifalaridir. Ular uchun yuksak malakali o`qitiuvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish esa kadrlar tayyorlash sohasidagi ustivor vazifalardan sanaladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o`zining «Buyuk keajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolisida shunday deb ta'kidlagan edilar: «Tarbiyachi-ustoz bo`lish uchun boshqalarning aql idrokini o`stirish ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o`zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo`lishini taqozo etadi». Shuning uchun ham o`qituvchi oldiga qo`yiladigan vazifalar o`ta murakkab, ma'suliyatli va ayni paytda sharaflidir. Rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan O`zbekistonimizda xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg`or texnologiyalarni joriy etishga va shu orqali ta'lim mazmunini jaxon andozalari darajasiga olib chiqish barasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch."I.A.Karimov.Toshkent 2008
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir.- T.:2010
3. Karimov I.A "Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlaktni modernizatsiya va islox etishdir"T."O'zbekiston" 2005y
4. Mertsalova M.N. Istoriya kostyuma. M: - Iskustvo 1972 7-9 s.
5. Parmon *F*.M. Kompozitsiya kostyuma. M: 1997 16-18 s.
6. Stamerov K.K. Istoriya kostyuma. Chast 1, Kiev-Nauka, 1978.
7. Hasanboeva G.K., V.A. Chursina. Kostyum tarixi.Toshkent «Uzbekiston»
8. Hasanboeva G.K. , Krimova O.I. «Kiyim modelini ishlash va konstruktsiyasini tayyorlash». Toshkent – O'qituvchi, 1990.
9. Pulatova S.U. va boshqalar. Kompozitsiya asoslari. Toshkent, "Turon-Iqbol", 2006 y.